

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TOZA BULOQLAR

Abdusaid Ko‘chimov,
*O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yoshlar murabbiyi*

1

Omad deganing Sirdaryoning balig‘i ekanmi nima balo, bir ketsa sira tutqich bermas ekan: bultur ToshDUdan yiqiluvdim, bu yil Pedinstitutmandatidan o‘tolmadim. Institut hovlisida garangsirab tursam, oriq, novchadan kelgan yigit yonimga keldi. Hujjat, imtihon topshirish jarayonida tanishib qolgan edik Ko‘bay degan bu yigit bilan.

– Ha, jo‘ra, suvda bo‘kkan bo‘lkaday shalpayib turibsiz, bo‘madimi? – dedi Ko‘bay hamdard ohangda. – Bizning cho‘biram chortoqqa yaramadi. Nechavo, ishlab, o‘qiyveramiz. Ketdik.

Beixtiyor unga ergashdim.

1966-yilgi zilziladan keyin Toshkent kattakon qurilish maydoniga aylangan, institutlarningkunduzgi bo‘limiga kirolmaganlar, qurilishda ishlash sharti bilan kechki bo‘limlarga qabul qilinardi o‘sha paytda.

Ko‘bay Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining ximiya–biologiya, men o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti kechki bo‘limining talabasi bo‘ldik shu kuni. Ko‘bay kirishimli, ulfat yigit edi. Uchrashib, gurunglashib, yanayam yaqinlashib qoldik. U suhbatlarda Qurdoş degan rosa “kitobxo‘r” ukasi borligi, shu ukasi adabiyotchi bo‘lmoqchiligi haqida ko‘p gapirar va: “Ukam bizga o‘xshab changga bulanmaydi, kunduzgida o‘qiydi. Kelsin, albatta, tanishtirib qo‘yaman, akalik qilasiz, xo‘pmi?”, deya iljayib qo‘yardi.

Yaxshi niyat ham yarim davlat-da. Akaning ezgu niyatimi, ukaning toleyi yorug‘ligimi, ishqilib, Qurdoş degan bola ikki yildan keyin maktabni tamomlab keldi va “changga bulanmay” kunduzgiga qabul qilindi. Bu paytda men ham changchungdan qutulgan, ya‘niki, kechkidan kunduzgi bo‘limga o‘tgan edim. Ko‘bay jo‘ram aytganini qilib, meni ukasi – to‘q bug‘doy rangli, o‘rta bo‘yli, qotmadan kelgan yigit –Qurdoşboy bilan tanishtirdi. Ammo uka-akaning g‘irt teskarisi ekan: aka – shaldir-shuldir, uka – turtmasang og‘iz ochmaydi; aka – kamtar, kirishimli, uka – kibrlı desang, uyqusirab yurganga, uyqusirab... desang, kibrlıga... o‘xshamaydi-yu, lekin allanimadan norozidek tirishib, yelkasini qisib yurishlari odamni hurkitadi – ko‘kragingdan itarayotganday bo‘laveradi. Olovga qaraganday ko‘zlarini qisvolib, sinch bilan tikilishlari bilan esa, xuddiki menga ko‘p tirg‘alma, degandek shashtingni qayiradi. Yana deng, shu indamas holidi “Chashma”ning bironta mashg‘ulotini qoldirmaydi. Hammadan oldin keladi, orqaroqqa joylashadi, miq etmay o‘tiradi, eshitadi-eshitadi so‘ng indamay chiqib ketadi. Bir kuni...

“Bir kuni” haqida gapirishdan oldin, “Chashma” to‘garagi to‘g‘risida ozgina ma‘lumot berishim kerak. Yozuv-chizuvga qiziqadgan talaba– yoshlar uchun o‘ziga xos maktab edi bu to‘garak. Zulfiya, Said Ahmad, Shukrullo, Hamid G‘ulom, Izzat

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Sulton, Ramz Bobojonlar shu yerda qalam chaxlagan, derdi iftixor bilan jingalak sochlari keng peshonasida jilvalanib turadigan rahbarimiz Pirmat Shermuhamedov. Kuyunchak va tinib-tinchimas edi ustozimiz. Bir kun Abdulla Oripov, bir kun Erkin Vohidov, bir kun OmonMatjon yana bir kun Ma’ruf Jalil yoki Rauf Parfini boshlab kelar, el suygan shoir va yozuvchilarning hammasi bilan uchrashgan edik “Chashma” quchog‘ida. Mashg‘ulotlar, muhokamalar o‘ta jiddiy tarzda olib borilar, to‘garakda boshlangan muhokamalar anchagacha koridoru auditoriyalarda davom etirdi.

2

Endi “bir kun” haqida.

O‘sha kuni yuqori kursda o‘qiydigan Shaxayevning she‘rlari muhokama qilinadigan bo‘ldi. Mashqlari institutning “Sovet pedagogi” gazetasi va “Toshkent oqshomi”, “Yosh leninchi” (hozirgi “Yoshlar ovozi”) kabi nashrlarda chiqib turadigan, jussasiga yarashmagan do‘rildoq ovoqli Shaxayev o‘zini taniqli shoirlardek tutar, tanaffus paytlarida deraza tokchasiga suyangan ko‘yi papiros tutatib, yuqoridan qarab gaplashar, salmoqli qadamlar bilan boshini mag‘rur ko‘tarib, bir– bir bosib yurardi koridorlarda.

Domla Shermuhamedov yosh shoirshe‘rlari haqida lo‘nda ma’lumot berdi. U kishining odatlari shunaqa – boshlanishida muxtasargina gapiradi, sababini bilamiz – yoshlarning o‘zlari ko‘proq muhokamada ishtirok etsin, bahslashishni o‘rgansin, deb shunaqa qiladi, asosiy fikrini oxirida aytadi. Domlamiz mavzu eshigini qiya ochgach, “doklad” uchun so‘zni bizning kursdoshimiz, she‘rlari ashula ham bo‘lgan shoir Ma‘mur Nosirga berdi. Ko‘zoynagi qaddiga yarashimli, sochlari Otellonikidek jingalak notiq, Shaxayev she‘rlaridagi yutuq va kamchiliklar to‘g‘risida xiyla bama’ni fikrlar bildirdi. Keyingi so‘zlovchilar esa, negadir, jamoa bo‘lib maqtovgga zo‘r berishdi. “Shaxayevning she‘rlarida Lermontovcha tuyg‘ular ko‘pirib turibdi”, “Sharqona donolik bor”, “Tabiat manzaralarini mohir rassomdek tasvirleydi”, “Abdulla Oripovning isi keladi...” Ta’riflar avjlanib-mavjlanayotganda, indamas Qurdoshdan sado chiqib ketsa deng.

– Domla, men ham gapirsam maylimi? – dedi u maktab o‘quvchisidek odob bilan o‘ng qo‘lini ko‘tarib.

– Qurdoshboy, qani-qani? – xursand bo‘lib ketdi Pirmat domla.

Hamimiz “yalt” etib Qurdosh o‘tirgan tomonga qaradik.

Hamisha bir chekkada bechorasinib o‘tiradigan odamdan bunday sasning chiqishi kutilmagan hodisa edi-da! Buning ustiga, kimsan, Pirmat Shermuhamedovdek ustozning “Qurdoshboy” deb turishi...

Yaqinginda Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab kelgan Pirmat Shermuhamedovning nomi nafaqat institutda, balki respublika adabiy jamoatchiligi

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

davralarida ham mashhuru ma’lum. Ustozning har bir chiqishi, adabiy jarayonlarga doir o‘tkir fikr-mulohazalari-u Yozuvchilar uyushmasidagi yig‘ilish yoki telemuloqotda bo‘ladimi, gazeta yoki jurnalda chop qilingan maqolada bo‘ladimi albatta, doimo qizg‘in bahs va munozaralarga xamirturish. Ayniqsa, qoyil qolganim – Qurdosh allaqchon Shermuhamedovdek taniqli tanqidchining nazariga tushibdi. Bunday havasli martabaga qachon sazavor bo‘lib ulgurdi-bunisi endi yana bir hayrat.

Qurdosh sekin joyidan turib, gapga shaylangan edi, Pirmat domla uni doska yoniga imladi. Qurdosh eshik tomondan aylanib o‘tib, domla o‘tirgan stol tomon yurdi. U boryapti-yu, mening ko‘nglimga qandaydir qo‘rquv o‘rimaladi: “dovdirab, fikrini aytolmay, noqulay ahvolga tushib qolsa-ya...”

Yo‘q, puxta ekan, avval domlaga, so‘ng qani, bu bola nima derkin, degan qiziqish bilan o‘ziga tikilib turgan ko‘zlarga bir qur nazar tashladi, o‘zidan to‘rt-besh yosh katta bo‘lgan yigit-qizlarning shivir-shiviriga e’tibor qilmadi, yuzlarida qat’iyat paydo bo‘lib, ko‘ksini bir qadar ko‘tarib, bamaylixtir fikrini bayon qilishga kirishdi:

– Shaxayevning mashqlarini sinchiklab o‘qidim. Havaskorlikdan ancha baland. O‘qigan, o‘rgangan, she’r yozish qoidalarini yaxshi biladi. Ravon o‘qiladi. Badiiy topildiqlar yo‘q emas. Lekin bu uni Lermontov yoki Abdulla Oripov demoqqa izn bermaydi. Baholashga shu xilda yondoshadigan bo‘lsak, bu yerda o‘tirganlarning birini Pushkin, birini Qodiriy, boshqasini Erkin Vohidov, yana birini Bayron deyishimizga to‘g‘ri keladi.

– Biz – Belinskiy. Shundaymi Qurdoshjon? – kulib yubordi Pirmat domla. – Qurdoshjon to‘g‘ri ta’kidlayapti, – domla shu so‘zlarni aytayotib, joyidan turib ketdi. Keyin boshini xam qilib, jingalak sochli keng peshonasini tirishtirib, o‘ng qo‘lining bosh va ko‘rsatkich barmoqlarini iyagiga olib borgan ko‘yi u yoqdan bu yoqqa yurdi. Tomoq qirib, o‘ychan davom etdi. Ofarinbozlik – pufakka o‘xshaydi. Siz hozirdan qoching asossiz maqtovlardan. Foyda – chin so‘zda, chin haqiqatda. Qani, Qurdoshboy, gapiraver, davom qil.

Domlaning qo‘llovi dalda bo‘lgan esa-da, Qurdosh sinini buzmadi. O‘sha – vazmin ohangda Shaxayev she’rlarining o‘ziga xos jihatlarini ro‘y-rost tahlil qilaverdi.

– She’r – yurak, qalb, ehtiros mahsuli. Zo‘rakilik, maqtanchoqlik, manmanlik ketmaydi she’riyatda. Katta shoirlarga ergashish mumkin, lekin bu taqlidga aylanmasligi shart.

Uni eshityapman-u, xayolimdafaylasuf bobomiz Yusuf Xos Hojibning: “odamning ko‘ngli tubsiz chuqur dengiz kabidir, bilim esa inju kabi uning tubida berkingan bo‘ladi. Inju dengizdan chiqarib olinmasa, bunday inju soy toshi bilan teng va qimmatsizdir”, degan so‘zlari keladi. Bilim degani xuddi dengiz ostidagi inju kabi

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

berkinib yotgan ekan indamasvoy ukamning ichida. Qoyil! Harkuni minbarma–minbar ma’ruza irod qilib yuradigan ustoz-muallim kabi sayraydi-ya! “Sayraydi” deganim sal qo‘polroqdir-u, ammo, uning bir zaylda, bosiq gapirishi, gaplaridagi she’r, ijod to‘g‘risidagi tiniq fikrlari hayronlikda o‘tirganlarni battar hayratga solayotganiga qoyil qolmay bo‘lmasdi, axir?

Birinchi kurs talabasining “donoligi” yuqori bosqich talabalariga, xususan, Shaxayev ijodini maqtaganlarga uncha o‘tirishmagan bo‘lsa-da, birontasi “g‘ing” deb e’tiroz bildirmadi.

Ko‘bay jo‘ram allaqachon tanishtirgan, men bo‘lsam o‘zimcha “odamovi bola”, deb yurgan Qurdosh o‘sha kuni bir lahzada kattakon og‘ochga aylanib ketgandek bo‘ldi go‘yo.

3

Institutni tamomlab, “Lenin uchquni” (hozirgi “Tong yulduzi”) gazetasida ishlayotgan kunlarim edi. Bir balolarni yozib-chizib o‘tiruvdim. Kutilmaganda Qurdosh kirib keldi.

Gazetamizning kechagi sonida Pirmat Shermuhamedovning “Oq yo‘l”i bilan uning “So‘nggi qurbon” degan hikoyasi chiqqan edi. “Ijodkorning talanti gohida bolaligida, gohida esa yoshi ma’lum joyga borganida “yarq” etib ko‘rinadi, – deyilardi “Oq yo‘l”da. – Qurdosh Qahramonovni men iqtidorli olim, bolalar adabiyotining tadqiqotchisi sifatida bilardim. Yaqinda esa uning bir dasta hikoyalarini o‘qib qoldim va bolalar uchun qayg‘urib, kuyinib yozadigan yana bir ijodkor paydo bo‘lganidan suyundim.

Qurdosh ko‘pchilikning jig‘iga tekkan mushuk-sichqonlar, tulki-quyonlar to‘g‘risida safsata sotmaydi, balki bolalarning orzu-o‘ylari orqali muhim ijtimoiy muammolarni o‘rtaga tashlaydi”.

“So‘nggi qurbon”da bolalarning “urush-urush” o‘yinlari oqibatida kelib chiqqan fojiali o‘lim, Anvar degan bolaning singlisi Nozimani otib qo‘yishi juda ishonarli va ta’sirli tasvirlab berilgan edi. Hikoya ishchi “letuchka”mizda ham yuqori baholangan.

Qurdosh shu hikoyani “yuv”gani keldimi desam, u xuddi tomdan tarasha tushgandek:

– Ko‘bay jo‘rangiz sizdan qattiq xafa, – desa bo‘ladimi!? – Necha martalab Samarqandga, Urgutga borsangiz ham biron marta munday burilib, Qo‘shrabotga kiray, jo‘ramni ko‘ray, demabsiz.

– Hamma ayb sizda. Bir marta bo‘lsayam yur, dedingizmi?

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

– Akamning o‘pkalagani, yuring, ketdik, deganimda, – kulimsib davom etdi u. – Azim aka bilan G‘affor tayyor. Sizga qarab turibmiz. Xay, desangiz ertagayoq jo‘naymiz.

Shunday bo‘ldi.

Qaydasan, Qo‘shrabot deb tong saharda yo‘lga chiqqan “Moskvich”imiz, quyosh bir terak bo‘yi ko‘tarilar-ko‘tarilmas Qo‘shrabotning Pangat qishlog‘iga kirib bordi.

Nurota tog‘lari etagida yastangan bu qishloq manzaralari nimalari bilandir Urgutga – men tug‘ilgan joylarga o‘xshab ketarkan. Faqat tuya o‘rkachlari kabi bir-biriga mingashib-tutashib ketgan pastu baland qirlar serob ekan bu tomonlarda. Qirlarning etaklari bog‘-rog‘, dala-dasht.

Ha, aytganday, shu orada bo‘lib o‘tgan ayrim voqealarni aytish esimdan ko‘tarilibdi. O‘tgan vaqtda Qurdosh oliy ma‘lumot haqidagi diplomni cho‘ntakka urib, qishlog‘iga jo‘nab ketdi. Ustozimiz Pirmat Shermuhamedovning: “Institutda qol, sen ilmiy ish qilishing kerak”, deya yozg‘irishlariga qaramay shunday qildi. Nega unday qilyapsiz, domla hammaqayam bunaqa demaydi, desak, bir-ikki yil maktabda muallimlik qilayin, mendan olim chiqadimi-yo‘qmi undan keyin ko‘ramiz, deb ketvordi.

– Nizomiy Ganjaviy hazratlari “Xamsa” yozish uchun 20 yil daraxt tepasida chilla o‘tirib so‘z bitgan, deyishadi. Nima, siz ham Nizomiy bo‘lmoqchimisiz? – dedik yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lib.

Qurdosh bo‘lsa:

– Navoiy bobomiz xontaxtaga shamni yoqvolib ikki yilda besh dostonni yozib tashlaganlar, degan rivoyatlar ham bor, – deb iljaydi.

Alqissa, ikki yilmi, uch yil yoki ko‘proqmi tumandagi 50 – va 62 – o‘rta maktab o‘quvchilariga o‘zbek tili va adabiyoti fanidan dars berdi. Keyin kutilmaganda yana Toshkentda – O‘zR FA Til va adabiyot institutida paydo bo‘ldi.

– Ana endi ilmiy ish qilsak bo‘ladi, – dedi qat‘iyat bilan u. – Shahardan olislarda, ovloq joylarda ishlab o‘zimni xo‘p sinadim. Talabalikda boshlagan ishni davom ettirmasam bo‘lmasligiga ishonch hosil qildim.

Talabalikda boshlangan ish “Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli” deb nomlanardi. Ilmiy ish qilish igna bilan quduq qazishga o‘xshaydi, deyishadi. Menga qolsa, undan beshbattar og‘ir yumush bu, degan bo‘lar edim. Bir muddat boshim aylanib, o‘zim “ta‘mini totib” ko‘rganman-da. Xullas, kimlargadir havas qilibmi, domla bo‘lsang institutlarda dars berasan, hurmating baland bo‘ladi degan aqidalarga mahliyo bo‘libmi, olim bo‘lgim keldi. Lekin uquv, qunt... yuragim siqilib ketdi, sabrim chidamadi, bor-ey, deb

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tashlavordim. Qurdooshning mavzusi bo‘lsa, qarang, nomining o‘ziyoq sog‘ odamni ham kasal qilib qo‘yadi. Bunaqangi murakkab mavzular uzoq izlanish va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Shunday ham bo‘ldi. Rosa 8 yil deganda cho‘qqi zabt etildi: dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilinib, Qurdoosh Qahramonov filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi...

Ancha yillar bo‘luvdi Ko‘bay qardoshimni ko‘rmaganimga. Biroz to‘lishibdi, gaplari vazmin, qishloq o‘qituvchisining tipik vakiliga aylanibdi.

Hovliga kirar-kirmasimizdan Yalg‘ash muallim quyrug‘i savatday qo‘chqorlardan birini kulliklab, oyog‘imiz ostida so‘yib tashladi. Katta qozonda bilqillab sho‘rva qaynay boshladi.

Qurdoohlarning oilasini yaxshi bilmas ekanman. Bir hovli, bir mahalla ekan: Ko‘bay, Qurdoosh, Ro‘ziboy, Aliboy, Valiboy, Sobirboy, Mavsuma, Ozoda, Zulfiya, Osiyo...

– O‘zlaridan ko‘payishib yurishsin, uka-singillari ko‘p bo‘lsin degan niyatda to‘ng‘ichimiz tug‘ilganida Ko‘bay degan ism qo‘yuvdik, – deb izohlagan bo‘ldi suhbatlashib o‘tirganimizda Yalg‘ash muallim, – Xudoyimga shukur. Ko‘payishdi. Kattalarini institutlarda o‘qitdik, kichkinalari maktabda o‘qiyapti. Nabiralar, ana, to‘palon qilib yurishibdi chopqillab.

Donolik o‘z-o‘zicha oqib yotadigan daryo emas. U hayotdagi oila degan, kitob degan eng toza buloqlardan suv ichadi. Panggatga kelib anglagan haqiqatlarimdan biri shu bo‘ldiki, Yalg‘ash muallim karvonidagi hamma havas qiladigan mehnatkash va oqil farzadlar ham musaffo buloqlardan suv ichib, voyaga yetgan. Shularning bittasi – Qurdoosh.

Zakovat bilan bilim juda ezgu narsalardir, agar ularga erishsang, amal qilib ko‘klarga parvoz qilasan, deyдилar Yusuf Xos Xojib bobomiz Yalg‘ash muallim bilan Nozbuvi ona farzandlarining hammasini bilimli va odobli qilib tarbiyalaganlarki, bu fazilatlar bolalarning har bir harakatida sezilib turardi.

Toza buloqlarning tiniq suvlari bu oilani tabiatning shoh asarlaridan biriga aylantirgandek edi go‘yo!

Hozir do‘st yo tanishing Amerika yoki undan olis yurtlarga borib kelsa ham xuddi Toshkentdan To‘ytepaga borgandek oddiy qabul qilinadi. U zamonlarda, masalan, poytaxtdan Qo‘shrabotga mehmon kelishi qishloq ahli uchun uncha–muncha bayramdan kam bo‘lmagan voqeaga aylanib ketardi. Qurdooshning sinfdoshlari, qarindoshlari, qo‘shnilari turishibdi deng mehmonlar avval biznikiga boradi, bo‘lmasa xafa bo‘laman, deb. Mezbonlarning ko‘ngliga qaraymiz desak, bir haftayam kamlik qiladigan. Safarimiz bo‘lsa bir kunlik. Yalg‘ash muallim, nafaqat

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

muallim, balki qishloq oqsoqol emasmi, yo‘lini topdi, bir gala bo‘lib, bog‘otga jo‘nadik.

Bog‘ot – qishloq tepasidagi qir-adirlar orasida yashnab yotgan bog‘-rog‘larning havosi shu qadar sof, shu qadar toza ediki, nafas olib to‘ymaysan. Qushlarning sayrashini aytmaysizmi? Daraxtlarning bunchalik ko‘p gullaganini shu choqqacha hech ko‘rmagandim. Olmalar xuddi oq harir ro‘mol o‘ragan kelinchaklar kabi suluv. Maysalar, ko‘katlar, chechaklar, gullar hidiga ko‘milib ketgan edi bog‘ot. Bunday go‘zallik hammadan avval shoir Azim Suyunni to‘lqinlantirib yubordi:

Har paydo lahzada umrim bor mening,
Har bitta kunimda kelajagim bor.
Har esgan nasimda unim bor mening,
Har o‘sgan giyohda umidim poydor.

Shoirning daryoday emranishlari qushlarni yanada junbushga keltirdi, gullarga burkangan nozik novdalar silkindi, maysalar tebrandi.

– Jim! Eshitinglar, bulbul! Bulbul sayrayapti! – deya hayqirib yubordi bir mahal Azim aka.

Ko‘zlarni chirt yumib, tabiatga quloq tutdik.

– Bulbul xonish qilyapti, – davom etdi Azim Suyun. – Nega kuylayapti? Bilmaysiz. Bilib qo‘ying! – O‘z savoliga javob berdi o‘zi: – Sevgilisining ko‘nglini ovlab, zavq bilan xonish qilyapti. Jufti tuxum bosgan, bola ochguncha uni yupatish uchunyonidan jilmay sayraydi. Bola ochganidan keyin jo‘jalarini to‘ydirish tashvishiga tushadi. Pashshalarni, mayda qurtlarni og‘zida olib kelib, bolalariga tutqazadi. Xuddi odam zotiga o‘xshab ketadi bulbulning bu tashvishi.

– Azim aka zo‘r-da, – qulog‘imga shivirladi Qurdosh. – Tabiat dunyosini suv qilib ichgan, bunaqa shoir boshqa yo‘q. Akaning she‘rlarida giyohlar, og‘ochlar, jilg‘alar, jondoru jonivorlar aqlli insonga aylanib ketadi go‘yo, do‘sting, og‘ang bo‘lib so‘zlashadi, dardlashadi, fikrlashadi. Satrlaridagi teranlik, donolik, badiiy obrazlarni aytmaysizmi? Qadimgi Sharq mumtoz she‘riyati sirlarini mukammal egallamagan shoir bundayin ta’sirli yozolmaydi.

– Azim Suyun ijodini o‘rganishimiz kerak, – gapga qo‘shildi Aliboy. Aytmoqchi, Aliboy ham Qurdosh akasining izidoshi, bo‘lajak adabiyotchi – olim, hozir ilmiy ish qilyapti. – She‘riyatda o‘z osmonini yaratgan shoir Azim aka. Birinchi kitobini “Mening osmonim” deb nomlagani behudamas. O‘qisang, ichingga bahor havolari oqib kirayotganday bo‘ladi, hapriqib ketadi odam.

Ko‘bay jo‘ram ham Azim Suyun she‘riyatining ixlosmandi emasmi, mushoirani davom ettirib ketdi:

Qaydadir jononlar kulgisi kelar,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Kishi bundan ketmay turgisi kelar.
Ularning ichida bizning yor bormi,
Oh– oh, sabolardan gul isi kelar.

Nimadir sabab bo‘ldi-yu, Qurdosh yana bir iqtidorli shoir Qambar Ota haqida gap ochib qoldi va guring oqimi o‘z-o‘zidan Qambar Otaga ko‘chdi. Ha, esimga tushdi, Qurdosh ana shu kamsuqum shoir ijodi to‘g‘risida alohida risola yozayotgan ekan.

– Qambar Ota bolalarga ham, kattalarga ham bir xilda yozadi. Bolalarga atalgan she‘rlari ayniqsa, samimiy. Mana, “Zarpechak” degan ixcham she‘r:

Yashash uchun,
Tekinga,
Chirmashasan
Ekinga.
Turgan– bitgan
Baxilsan.
Shu sababli
Zahilsan.

Qarang, sakkiz qatorda ham zarpechakka xos xususiyatni poetiklashtiradi, ham zarpechakdagi zahillik bilan ayrim kishilarga xos baxillikni qiyosiy tasviri orqali she‘rdagi ijtimoiy mazmunning salmoqdorligiga erishadi. “Kitobcha va buzoqcha” degan she‘rida ham buzoqchanning xatti-harakatlari orqali kichkintoylar tabiati va faoliyatiga mos xulosa chiqaradi:

Buzoq yamlab tashlabdi
Kitobchamni bir kuni.
O‘qimasa qaydan ham
Bilsin uning qadrini?!

Hademay quyosh bog‘otdagi baland daraxtlar osha qirlar ortiga berkindi. Asta–asta qorong‘i cho‘kdi. Bulbullar yanada qattiqroq, yanada balandroq ovozda chah–chah urib sayrashga tushdilar. Kunduzi jimib, kechasi sayrovchi qushlar ularning navosiga jo‘r bo‘ldi. Peshinda boshlangan Panggat guringlar shu tarzda allamahalgacha davom etdi.

4

Har sohaning egasi, bilimdon “pir-u komili” bo‘ladi. Bilmagan sohaga bosh suqqan odam, qorong‘i o‘rmonga kirib qolgandek adashadi. O‘zi-ku, mayliya, boshqalarniyam chag‘itadi – boshini qotiradi. Ammo, bilib-bilmay qilingan dadil harakat ham gohida go‘zal natijalarni muyassar qilishi mumkin ekan.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Shunday qilib, tinchgina olimligini qilib yurgan Qurdoshning:

– Yonimizda maktab bor. Kelingiz ishlaydi. Kasbdoshlari direktor bo‘ling, deyishibdi. Lekin kimdir hokim bovoga bir og‘iz aytishi kerak ekan. Nima qilamiz? – deyishi hammamizni o‘yga toldirib qo‘ydi. Hamma deganim Qurdoshning do‘stlari – Rustam G‘ani, G‘affor Hotam, men.

Voy, odamning sodda – andisi-ey. Gapni qarang?

Nimamish, kelinimizga kasbdoshlari direktor bo‘ling, debdi. Xo‘sh, shunday desa, direktor bo‘lib ketaverar ekan-da, a? Tag‘in, hokim bovoga bir og‘iz aytish... Bir og‘iz aytish tugul, avvalo, hokimning oldiga kirishning o‘zi oson ekanmi?

Lekin “odamning sodda – andisi” masalani hal qilish kerak, deya oyoq tirab turibdi go‘yoki hamma ish bizning qo‘limizda turgandek.

Nima qilish kerak?

– Balki, Pirmat domlaga aytarmiz! – dedim tuzukroq taklif topolmay.

– Domlani ovora qilishning keragi yo‘q. O‘zimiz boramiz, – dedi Rustam G‘ani. – Jurnalist bo‘lsak, respublika gazetalarida ishlasak. Nomzodni bilsak, unga ishonsak. Yana nima kerak? Xo‘p desa, xo‘p. Demasa, yana o‘ylasharmiz.

– Kim – kim-u, ammo, Rustamdan bunday jasoratning chiqishi ham kutilmagan hodisot edi. Kamtar – u kamsuqumlikda Qurdoshdan o‘tadigan odamki, shunday deyaptimi...

Kuchaydik.

– Hokim sizga deyarli familiyadosh – Ko‘chchiyev, –fikrini dastakladi Rustam G‘ani. – Ko‘chimov – Ko‘chchiyev. Aka-uka, deydi eshitganlar.

Sezyapmanki, yukning og‘ir qismi yelkaga tushadigan:

– Bo‘pti, boramiz. Faqat uchchovimiz birga boramiz! – dedim.

Ketdik. Bordik. Kirdik.

Ko‘chchiyev qoruvli, dehqon aft, ochiq chehrali kishi ekan.

– Shuncha muxbir kepsilarmi, bunda bir gap bor, – deb mug‘ombirona jilmaydi Qibray tumani hokimi M.Ko‘chchiyev. – Demak, masalani o‘rganishimiz kerak, shundaymi? – muloyimlik bilan savol tashladi. – Yaxshi. Lekin natija , xulosaga qarab chiqariladi. Aytib qo‘yay, og‘ir maktab, kollektiv besaranjom.

– Uddalaydi! – debmiz baravariga xuddi hokim fikridan qaytib qolishidan qo‘rqqandek o‘zimiznikini ma‘qullab.

Ko‘chchiyev xushfe‘llik bilan iljayib qo‘ydi.

Eng muhimi, ishonasizmi – yo‘qmi – o‘rganishlar, xulosalar ijobiy yakunlanib, kelinimiz Naziraxon direktor bo‘lib, ishga kirishib ketdi! Ishlagandayam o‘n yilmi, o‘n besh yilmi ishladi. Zo‘r ishladi. Besaranjom maktab tumandagi ilg‘orlar qatoridan joy oldi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

O‘zbek ayollariga xos tantilik, sadoqat va sabohatni yuragiga joylagan Naziraxon ham oilaning, ham maktabning malikasiga aylandi.

Er-u xotinning o‘y-intilishlarida katta tafovut bo‘lsa, bunday oilada hech qachon halovat bo‘lmaydi, oila binosi qimirlab turadi. Buning aksi, ya’ni, bir-biriga ishonch va mehr mumtoz bo‘lgan ro‘zg‘orlar esa kamol topadi, boshqalarga namuna bo‘ladi. Qurdosh bilan Naziraxonim karvon boshi bo‘lgan oila ham mahallaning oldi – ibrat namunasi.

Qurdosh:

– Men bolalarga hamma sharoitni yaratib berishga qarshiman, – degan gapni ko‘p takrorlaydi. – Albatta, ularni qo‘llash kerak, lekin o‘zlari harakat qilsin.

O‘zlari harakat qilgan bolalarning hammasi o‘qidi, oila qurdi, uyli-joyli, bola-chaqali bo‘ldi; ahil, tinch, osuda, baxtli-baxtiyor...

5

Mehrli ustoz ham musaffo buloq – hamma bahra olgisi keladi bunday toza bahrdan. Filologiya fanlari doktori, professor, taniqli adabiyotshunos olim va tanqidchi Pirmat Shermuhamedov toza buloqlardan suv ichgan bir azim daryo edi. Ko‘zingga qarab, uqib olar edi ichingdagilarni. Uqqani zamon qormi, yomg‘irmi parvo qilmay yo‘lga – yordamga shoshadigan bu inson, Qurdosh kabi men uchun ham eng e‘zozli zot edi.

Sharof Rashidov vafotidan keyin “rashidovchilar” qatorida Pirmat domlaning osmonida ham qora bulutlar paydo bo‘ldi. Tekshira – tekshir, surho-surlardan so‘ng ustozni “Sharq Yulduzi” jurnali bosh muharriri vazifasidan bo‘shatishdi. Bunday kunlarda ko‘ngilga ozgina bo‘lsa ham dalda berish odamgarchilikning oddiy vazifasi. Biz ham ustoznikiga tez-tez borib turdik. Ustoz o‘tirib emas, yurib suhbatlashishga odatlangan edilar. Shu bois xonada boshlangan gurunglar tungi sokin ko‘chalarda davom etardi. Nohaqlik domlaga ta’sir qilgan, lekin xafa emas, aksincha, yelkasidagi ortiqcha yukdan xalos bo‘lganidan mamnun edi. Ko‘nglida tugib yurgan Ulug‘bekning qizi va Zamahshariy haqidgi tarixiy romanlarni yozishga imkon paydo bo‘lganidan mamnun edi. Hech qachon birovdan nolimagan odam bir kuni ardoqli shogirdining xatti-harakatiga tushunmayotganini sezdirib qo‘ydi.

Bu shogirdga Pirmat domlaning ko‘p mehnati singganini yaxshi bilardik. Og‘ir-og‘ir paytlarda kuniga yaragan, hamisha qo‘llab-quvvatlagan, tug‘ishgan inisidek ishonar va izzat qilar edi uni. Qurdoshning kursdosh do‘sti bo‘lgan arzanda shogird, domla ishdan ketganidan buyon butunlay ko‘rinmay ketibdi.

– Sezdingizmi, domla jo‘rangizdan xavotir olibdi, bir ko‘rinish berib ketsa yaxshi bo‘larkan, – dedimuyga qaytayotganimizda .

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

– Nechchi marta aytdim. Lekin... – Qurdosh birdan to‘xtab, yuzimga tik qaradi. – Bilasizmi, u menga nima dedi? U kishim... – tomog‘iga bir nima qadalganday yutindi. – U kishi, amaldan ketgan odamnikiga qamini bosmas ekan. Yoqalashib ketdim shu javobni eshitganda.

– Yo‘- g‘e? Domlanikiga borish tashabbusi har doim undan chiqardiku? Yana bir aytib ko‘ring?

– Befoyda – o‘ylanib qoldi. – Ko‘ngil yaxshi narsani ham, yomon narsani ham oldindan sezar ekan. Men ichida muttahamlik alomatlari borlgini g‘ir-sira ilg‘aganday bo‘lardim. Lekin ...– Qurdosh yana jimib qoldi. – Yaxshilikni biladiganlar azal-azaldan barmoq bilan sanarli bo‘lgan, – o‘z-o‘ziga taskin ohangida davom etdi keyin.

– Insonning yuksalishi ham, tubanlashishi ham tug‘ma fe‘lidan. Xudbin boshqalarnigina emas o‘z hayotini ham zaharlaydi, badbaxt qiladi. Hayot esa indamay o‘z hukmini o‘tkazaveradi. Aslida hech bir qilmishimiz jazosiz qolmaydi – faqat biz uni yo tushunib yetmaymiz, yo boshqalardan ko‘ramiz. Ko‘rasiz, hali ko‘p pushaymon yeydi og‘aynimiz.

– To‘g‘ri, – dedim fikriga qo‘shilib, – Domla aytganlariday, hayotning o‘z musiqasi bor – uni tinglay bilish kerak. Yana bir aytib ko‘ring-chi?

Aytdi. Ammo “shogird”qaytib oyoq bosmadi.

Qurdosh muntazam xabar olib turdi ustozdan. Vafot etganida, ko‘zlari yoshga to‘lib yelkasida ko‘tardi ustozning tobutini, keyingi jamiki marakalaridao‘g‘illari qatorida bel bog‘lab turdi. Ardoqli “shogird” esa qorasiniyam ko‘rsatmadi.

Dunyo bepoyon lekin bedarvoza emas. “Shogird”ning taqdiri juda ayanchli kechdi. Qadriga yetmaganni, baxt ham tashlab ketarkan. Ishlolmay, atrofidagilar bilar kelisholmay, ikki– uch dargohdan haydaldi, yakkamaxov bo‘lib qamalib yotdi uyida va...

Musulmonchilikda marhumlarning ketidan yomon gap aytilmaydi. Joyi jannatda bo‘lsin, deyiladi...

6

Go‘zal odati borda Qurdosh do‘stimning: ko‘rgim kepketti, deb kutilmagan paytda paydo bo‘lib qoladi.

Bugun ham shunday bo‘ldi.

– Universitetga ketayotuvdim, qarasam, dars boshlanishiga hali vaqt bor, moshinni pastga qo‘ydim-u, to‘g‘ri kirib kelaverdim.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Xursand bo‘lib ketdim. Atoqli olim, ardoqli adabiyotshunos – sinchi Qozoqboy Yo‘ldoshning “Jilovlanmagan tafakkur mahsuli” kitobini o‘qib, olgan taassurotlarimni kim bilandir baham ko‘rgim kelib turgan edi.

– Ayni vaqtda keldingiz-da! Manovini o‘qigandirsiz?

– Maza qildingizmi? – savolimga savol bilan javob qaytararkan, to‘lqinlanib ketdi Qurdosh. – Alloma Qozoqboy aka, alloma! Tili, tafakkur tarzi, fikrlardagi salmoq! Yozuvchi bo‘lganida Aytmatov yoki Markesdan kam bo‘lmasdi. So‘zni jonidan yaxshi ko‘radi, izzat qiladi, qadrlaydi. Kitoblarining nomini ko‘ring: “Yoniq so‘z”, “Ochqich so‘z”, “So‘z yolqini”...

– Yana bitta kitob bor “So‘zu so‘z”.

– U kitob Suvon Meliniki. Suvon akayam zo‘r.

Gurungimiz bir pastda arqonday eshilib ketdi. Qurdosh qurmag‘ur, munday tashqaridan qarasangiz, kamgap, og‘irkarvonga o‘xshaydi-yu, ammo mavzu adabiyot tomon burilganda bulbuligo‘yo bo‘lib ketadi, to‘xtatolmay qolasiz.

Mana, hozir ham u gapiryapti, men eshityapman. Eshita turib, zimdan yuzlariga qarayman. Yoshlik esga tushadi. Qani peshonada ko‘pirib turgan qalin sochlar, burgutnikiday o‘tkir ko‘zlar? Taram-taram ajinlar qachon paydo bo‘ldi? “O‘ylab boshi qotmagan kishining peshonasida ajin nima qilsin” tasalli beraman o‘zimga. Qurdosh ishladi. Umr bo‘yi tinmay boshini qotirib ishladi.

Hamma hikmat mehnatda, derdi rahmatli ustozimiz Pirmat Shermuhamedov, mehnat qilgan odam ilmning ko‘rki – tumoriga aylanadi.

Ustoz o‘gitlariga amal qilgan Qurdosh birovlar bilan choyxonalarda chaq-chaqlashib vaqtini shamolga sovurmadi. Ishni oson biritirish yo‘lini izlab, foydasi tegishi mumkin bo‘lgan odamlarning bo‘sag‘asida yotib olmadi, ko‘ngli chopmasligini sezdimi indamay qo‘l siltab ketaverdi.

Hadisda bir soatlik ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir deyilganidek o‘qidi, izlandi, o‘rgandi – mehnat qildi.

Mehnat odam tanishni, oq-qorani ajratishni, dunyo g‘alvalariga chidashni o‘rgatdi.

Oraga manfaat suqulgan joyda, do‘stlikka ham, ustoz-shogirdlikka ham putur yetishini ko‘rsatdi.

Mol-u dunyoga hirs qo‘ygan ko‘ngildan mehru oqibat qochishiga guvoh bo‘ldi.

Hayotingdan, qilayotgan ishingdan qoniqish tuysang, bu olamda sendan baxtli odam bo‘lmasligini tushundi.

Hali aytganimdek, adabiyot haqida gap ochilganda, kamgap Qurdoshni to‘xtatib bo‘lmay qoladi. Men ora-chora suhbatga o‘tin qalab qo‘yaman:

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

– Ayrim tanqidiy maqolalarni o‘qiganda hayron qolasanki, tanqidchining o‘zi tanqiddan cho‘chib, hadiksirayotganday tuyuladi.

– Sababi, asar haqidagi xulosalari mukammal emas, asarni chuqur mulohaza-mushohada qilmagan, shunchaki yo‘liga munosabat bildirish uchungina yozgan. Yoki asar muallifi do‘stimi, ulfatimi bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Hadiksiramaslik uchun odam o‘ziga ishonishi, aytayotgan so‘ziga javobgarlikni his qilishi kerak.

Yana bir sababi, so‘zni behuda isrof qiladigan vaysaqi tanqidchilar hamma zamonlarda bo‘lgani kabi hozir ham serob. To‘g‘ri, mustaqilligimiz bag‘rida ulug‘ ijodkorlar qatori iymon-e‘tiqodi bardam olimlar ham yetishib chiqdi. Qozoqboy Yo‘ldosh, Suvon Meli, Bahodir Karim, Hamidulla Bolaboyevlar o‘zbek adabiyoti hech qaysi adabiyotdan kam emasligini ro‘y-rost ko‘rsatib, tahlil qilyapti. Xurshid Do‘stmuhammad, Ulug‘bek Hamdam, Sobir O‘nar singari adiblaradabiyot haqidagi maqola va suhbatlarida uyg‘oq fikrlar bildiriyapti. Har bir aqlli mavjudotda bo‘lgani singari yozuvchi va olimda ham avvalo e‘tiqod bo‘lsin. Birovning asarini tahlil va tadqiq etadigan odamda bu fazilat yanam ko‘proq bo‘lgani tuzuk. Tanqidchi asarning mag‘zini chaqib mutolaa qilsin. Aslida buyam professionalizmning, yuksak iste‘dodning belgisi. Yaxshi asarni o‘z vaqtida e‘tirof etib, bahosini berish yuksak fazilat. Tanqidchi olim faqat kitob taqdimoti yoxud yubileyda emas hamisha adolatli so‘zini aytsin. Hozir turli joylarda kunda-kunora yangi kitoblar taqdimoti o‘tkazilyapti. Bu yaxshi. Juda yaxshi. Lekin majlis tugashi bilan suvga cho‘kkan toshday eslamaymiz, unutamiz.

“Peshonadagi ajinlar bekorga emas, – deyman ich-ichimdan g‘ururlanib. – Umr o‘tgan yillar bilan emas, qilingan ishlar bilan o‘lchanadi. Qurdosh bir emas, bir necha olim qilishi mumkin bo‘lgan yumushlarni bajardi”.

U Pangatdan Toshkentga qaytib kelganidan so‘ng ishni O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot institutida laborantlikdan boshlaganini yuqorida aytgan edim. Keyin katta laborant, kichik ilmiy xodim bo‘ldi. 1988-yilda nomzodlik, 2012-yilning iyun oyida esa “Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

1989-yildan o‘zi tahsil olgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida katta o‘qituvchi bo‘lib ishga o‘tgan Q.Qahramonov 41 yillik muallimlik faoliyatining 30 yildan ortig‘ini shu qadrdon dargoh quchog‘ida o‘tkazdi. “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiy tanqid tarixi”, “O‘zbek bolalar adabiyoti” kurslari bo‘yicha risolalar, “Yangilanish jarayonlari”, taniqli adabiyotshunos olimlar bilan hammualliflikdagi “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi (Bu darslik Oliy ta‘lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

muallifi” Respublika tanlovida rag‘batlantiruvchi o‘ringa munosib ko‘rildi), “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari”, “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti”, “Ijod va e‘tiqod” nomli monografiyalar, Qambar Ota ijodiga bag‘ishlangan “Bolalikka oshufta ko‘ngil” kabi kitoblari shu dargohda dunyoga keldi. Professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda multimediali o‘quv-uslubiy majmualar yaratib, namunaviy o‘quv dasturlari tuzishda faol ishtirok etdi. Ko‘p yillar OAK qoshidagi ekspertlar kengashida filologiya fanlari yo‘nalishi bo‘yicha ekspert a‘zosi sifatida xolis va samarali ishladi. Uning bakalavriat va magistratura yo‘nalishlaridagi o‘quv kurslari bo‘yicha ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlari hozir ham ta‘lim jaryonida keng foydalanilmoqda.

Kechagi talaba shu tariqa taniqli adabiyotshunos olimga aylandi. O‘nlab magistrlik dissertatsiyalariga, yuzlab bakalavrluk bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qildi. Gulnoza Jo‘rayeva, Nafisa Umrzoqova, Dilafro‘z Jabborova, Feruza Burxonova, Mahbuba O‘rozboyeva singari o‘nlab shogirdlari bugun fan nomzodi va fan doktorlaridir. Q.Qahramonov maktabida shakllangan bu iqtidorli olimlar endilikda ustozlari ishini davom ettirib, hozirgi adabiy jarayonlarning dolzarb muammolari tahlili va tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqda.

Q.Qahramonovning bir qancha maqolalari AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Ukraina, Qozog‘iston, Ozarbayjon kabi mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida, turli to‘plamlarda chop etilgan.

– Bo‘ldi, bas, demabsiz. Vaqt bo‘p qopti-ku! – dedi bir mahal soatiga ko‘z tashlagan suhbatdoshim ilkis joyidan qo‘zg‘alib. – Darsim to‘rtinchi kursda. Talabalar kutib qolmasin.

– Bir marta kechiksangiz kechikibsiz-da. Hech kech qolganmisiz? o‘smoqchiladim men.

– Esimda yo‘q, – ketish taraddudida javob berdi u. – Bitta muallimning qoida buzishi, yuzta talabaning qoida buzishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi hamma sohada, hamisha, hammaga o‘rnak bo‘lishi kerak.

Kulishdik.

Kuzatib qo‘ydim.

03.04.2024– yil